

TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYA

2024
6-son

ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy-uslubiy jurnal



ISSN 2181-8274

MASHG'ULOTLARNI TASHKIL ETISH METODIKASI..627	ASOSIDA O'QITISHI757
Gulzoda Muhiddinova. IQTISODIY MASALALARNI TAHLIL QILISHDA MATEMATIK MODELNING AHAMIYATI.....634	Zuxra Djaxangirova. BOSHLANG'ICH SINFLARIDA O'QUVCHILARIDA TADBIRKORLIK KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.. 761
Ma'mura Norqulova. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA AXLOQIY TARBIYA BERISH USULLARI .639	Ulugbek Mirzaxmedov. MUSIQALI ERTAKLAR VOSITASIDA BOLALARDA KOGNITIV VA EMOTSIONAL JIHATLARNING UYG'UNLASHUVI765
Nodima Oripova, Mohinur Sobirova. BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINFLARINING IJTIMOYIY KOMPETENTLIGINI TURLI MODELLAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH NETODIKASI.....644	Dilshod Eryigitov. TALABALARNI OMMAVIY JISMONIY TARBIYA VA SPORTGA JALB ETISH O'QUV JARAYONINI KASBIY TAYYORGARLIGINI TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH (SIRTOQI TA'LIM MISOLIDA).....768
Alisher Shoimov. "SIYOSIY ISHTIROK" TUSHUNCHASINING MOHIYATI VA TALQINLARI649	Zarnigor Jalolova. BO'LAJAK JISMONIY TARBIYA O'QITUVCHILARIDA BOLALARNI SPORT TURLARIGA SARALAB OLIISH KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI772
Manzura Muhammadiyeva. MAS'ULIYAT HISSINING SHAXS FAOLIYATI SAMARADORLIGIGA TA'SIRI.....655	Sadoqat Berdiyeva. TALABALARNI XORIJIY TAJRIBALAR ASOSIDA INKLYUZIV TA'LIM FAOLIYATIGA TAYYORLASH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH... 776
Nodir Usmonov. TA'LIMDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI.....660	Yoqubjon Mahmudov, Shodiyona Oromova. BO'LAJAK MUTAXASSISLARNI TA'LIMI TIZIMIDA KASBIY VA UMUMIY KOMPETENTSIYALARINI SHAKLLANTIRISH..... 778
Navruza Irmuxamedova. OLIY TA'LIMDA TALABALARGA DARS O'TISHDA SMART KOMPYUTER TARMOQLARI.....665	Gulandom Jo'rayeva. O'QUVCHILAR JAMOASIDA KUZATILAYOTGAN AGRESSIYALAR VA ULARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....786
Durdona Naimova. MAXSUS MAKTABLARDA TA'LIM OLUVCHI KO'ZI OJIZ VA ZAIF KO'RUVCHI BOLALARNING NUTQNI RIVOJLANTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....670	Abdulkarim Jo'rabayev. BO'LAJAK JISMONIY TARBIYA VA SPORT SOHASIDA MUTAXASSISLARNI PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK TAYYORLASHNING ZAMONAVIY MUAMMOLARI VA TALABLARI790
Fotima Xolmatova. ARTPEDAGOGIK YONDASHUVNING KELIB CHIQISH TARIXI VA UNING TAHLILI.....675	Xurshida Mamatmusayeva, Nilufar Xadjimusayeva. BOSHLANG'ICH SINFLARDA XALQARO BAHOLASH DASTURIGA TAYYORGARLIK BOSQICHLARI HAQIDA.. 793
Usman Sodikov. THE IMPORTANCE OF YOUTH SPORTS IN CHARACTER BUILDING.....683	Ma'ruf Muqimov. BO'LAJAK MUTAXASSISLARNING KASBIY KO'NIKMA VA MALAKALARINI SHAKLLANTIRISHDA MILLIY QADRIYATLARDAN FOYDALANISH799
Saodat Ruzieva. UZBEKISTAN: TRANSFORMATION OF MUSEUM MANAGEMENT688	Akmal Quvondiqov, Zuhra Xursanboyeva. O'QUVCHILARNI MA'NAVIY TAYYORLASHDA JISMONIY MADANIYAT VA SPORT TADBIRLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH TEXNOLOGIYALARI802
Olimjon Eshonxujayev. CLINICAL PHARMACOLOGY: ADVANCING PHARMACOTHERAPY THROUGH SCIENCE AND PRACTICE.....693	Gulnoz Ergasheva. O'QUV IZOHLI LUG'ATLAR VA TARIXIY ASARLARDA NUTQIY ETIKETLAR TALQINI806
Тимур-Мухаммет Агжанов. ИНФОРМАЦИОННАЯ КУЛЬТУРА – ОСНОВА ФОРМИРОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СПЕЦИАЛИСТОВ698	Umida Musayeva. TA'LIMNI RAQAMLASHTIRISHDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI IJTIMOYIY-MADANIY KOMPETENTLIGINI TAKOMILLASHTIRISHNING AHAMIYATI810
Saodatxon Erkaboyeva. INGLIZ TILI O'QITUVCHILARINING UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANISHLARIDA ELEKTRON PORTFOLIDAN FOYDALANISH: QIYINCHILIKLAR VA AFZALLIKLARI703	Dono Rahmonova. ZAMONAVIY TA'LIM MUHITIDA KIMYO O'QITUVCHISINI KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASH.....815
Gulom Shermatov. ADAPTING PHYSICAL EDUCATION PROGRAMS FOR STUDENTS WITH DISABILITIES708	Shoira Abdurasulova, Shuhrat Mamarahimov, Sevara Djanbayeva, Nasiba Rasulova. KREDIT MODUL TIZIMIDA BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QITUVCHISINING MULOQOT KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI 818
Abdikarim Tangriev. PHYSICAL EDUCATION AND ITS INFLUENCE ON ACADEMIC PERFORMANCE.....713	Alisher Abdullayev, Ulug'bekmirzo Qurbonov. OLIY TA'LIM TASHKILOTLARIDA TA'LIM TIZIMINI BOSHQARISHDA HEMIS AXBOROT TIZIMINING TUTGAN O'RNI824
Abdullo Tangriyev. THE IMPACT OF PHYSICAL EDUCATION ON MENTAL HEALTH IN CHILDREN AND ADOLESCENTS 718	Ulug'bekmirzo Qurbonov, Saidjalolxon GaziyeV. OLIY TA'LIM FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI UCHUN OLIY TA'LIM JARAYONLARINI BOSHQARISH AXBOROT TIZIMINING FUNKSIONAL IMKONIYATLARI829
Odinaxon Ismanova. OLIY TA'LIMDA LOYIHAVIY FAOLIYAT USULIDAN FOYDALANIB TALABALARNI KASBIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH722	Ш.П Абдуразакова. ЛИНГВОКУЛЬТУРНЫЕ ЛАКУНЫ В КОНТЕКСТЕ АНГЛО-УЗБЕКСКОЙ МЕЖКУЛЬТУРНОЙ КОММУНИКАЦИИ.....833
Kamila Alikberova. THE FUTURE OF COGNITIVE SEMANTICS: EMERGING TRENDS AND CHALLENGES728	N.A.Abdukadirova. LINGUOCULTURAL FEATURES OF EXPRESSIVENESS IN MEDIA LANGUAGE838
Zebo Almatova. LOYIHALASH TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA BO'LAJAK BIOLOGIYA O'QITUVCHILARINI KASBIY METODIK TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISHDA TADQIQOTCHILIK IMKONIYATLARI.....733	Dilfuza Pirnazarova. THE REFLECTION OF EPIC TRADITION IN LITERATURE844
Mo'jizaxon Kuychiyeva. MALAKA OSHIRISH JARAYONIDA STEAM YONDASHUV ASOSIDA TABIIY FANLARNI O'QITISHDA MUAMMOLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARINI AHAMIYATI737	Mavludaxon Umarova. TEXNIKA FANLARINING AMALIY MASHG'ULOTLAR DARSINI O'QITISHDA INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALAR QO'LLASHNING AMALIY AHAMIYATI847
Rasuljon Atamuratov. O'QUVCHILARNING RAQAMLI KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA IMMERSIV VIDEO LARNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI741	
Sirojiddin Imomov. SPORT FAOLIYATI TA'LIM YO'NALISHI TALABALARINING MADANIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH.....745	
Носиржон Гаффоров. 13-14 ЁШЛИ БОКСЧИЛАРНИНГ ИДРОК АНИКЛИГИ КЎРСАТКИЧЛАРИ ДИНАМИКАСИ750	
Dilnoza Amirkulova. WHY WE NEED FORMATIVE ASSESSMENT IN TEACHING CLASS?754	
Nilufar Urinova. BO'LAJAK GEOGRAFIYA O'QITUVCHISINI DARSLARINI MUAMMOLI TA'LIM TEXNOLOGIYASI	

3. Hattie, J., Timperley, H. (2007). "The Power of Feedback." **Review of Educational Research**, 77(1), 81-112.
4. Glickman, C. D., Gordon, S. P., Ross-Gordon, J. M. (2018). **Supervision and Instructional Leadership: A Developmental Approach**.
5. Brookhart, S. M. (2010). **Formative Assessment Strategies for Every Classroom: An ASCD Action Tool**.
6. Wiliam, D. (2011). "Embedded Formative Assessment." **Solution Tree Press**.
7. Nicol, D. J., Macfarlane-Dick, D. (2006). "Formative Assessment and Self-Regulated Learning: A Model and Seven Principles of Good Feedback Practice." **Studies in Higher Education**, 31(2), 199-218.
8. Fuchs, L. S., Fuchs, D. (2007). "Formative Assessment: A Key to Effective Intervention." **Theory Into Practice**, 46(1), 24-29.
9. Shepard, L. A. (2000). "The Role of Assessment in a Learning Culture." **Educational Researcher**, 29(7), 4-14.

BO'LAJAK GEOGRAFIYA O'QITUVCHISINI DARSLARINI MUAMMOLI TA'LIM TEXNOLOGIYASI ASOSIDA O'QITISHI

Nilufar Urinova,

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Geografiya kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada maktab ta'limida geografiya fanidan maktab o'quvchilariga sifatli ta'lim berish va o'qitishda muammoli ta'lim texnologiyasidan foydalanish va uning ta'limdagi samarasi haqida, Ta'lim jarayoniga innovatsion yondoshish zamonaviy ta'limning zaruriy shartidir. O'quv materialini o'zlashtirish bo'yicha an'anaviy yondashuvlar bilan bir qatorda yondashuvlar haqida qisqacha so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: *Muammoli ta'lim, sayyoraviy muammolar, geografik muammolar, ekologik vaziyat, chuchuk suv, antropogen ta'sir, biologik resurs, sho'rlanish, turizm, kreativ.*

Аннотация

В этой статье показано использование проблемной образовательной технологии и ее эффективность при обучении школьников географии в школьном образовании, инновационный подход к образовательному процессу является необходимым условием современного образования. Помимо традиционных подходов к усвоению учебного материала, кратко рассмотрены они.

Ключевые слова: *Проблемное образование, планетарные проблемы, географические проблемы, экологическая ситуация, пресная вода, антропогенное воздействие, биологический ресурс, засоление, туризм, креатив.*

Abstract

This article shows the use of problematic educational technology and its effectiveness in teaching geography to schoolchildren in school education; an innovative approach to the educational process is a necessary condition for modern education. In addition to traditional approaches to mastering educational material, they are briefly discussed.

Keywords: *Problem-based education, planetary problems, geographical problems, ecological situation, fresh water, anthropogenic impact, biological resource, salinity, tourism, creative.*

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasining "Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish va inson kapitalini rivojlantirish" deb nomlangan yo'nalishida maktablarda ta'lim sifatini oshirish, pedagog kadrlarning bilimi va malakasini xalqaro darajaga olib chiqish masalalariga katta ahamiyat qaratilgan [1].

O'zbekiston Respublikasining ta'lim tizimidagi o'zgarishlar umumiy o'rta ta'lim maktablari oldiga muhim vazifalarni qo'yimoqda. Bu vazifalar yoshlarni har tomonlama barkamol, ma'naviy yetuk, mustaqil fikrli, milliy merosimizni qadrlaydigan, ilmiy ijodkor, nozik didli qilib tarbiyalashni o'qituvchilardan tinmay ijodiy izlanishlarni, fidoiylilik ko'rsatishni talab etmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Murojaatnomasida "Uchinchi ming yillik intellektual rivojlanish davrida ta'lim muassasalarida pedagogik texnologiyalarni qo'llash orqali o'quvchilarda ilmiy bilimlarga asoslangan dunyoqarash va e'tiqodlarini shakllantirib borishlozimligini ta'kidlagan. Ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar o'sib kelayotgan yosh avlodga sifatli ta'lim berish va shu orqali jismoniy baquvvat, ma'naviy jihatdan yetuk, bilimli avlodni tarbiyalash, o'quvchilarning mustaqil fikrlash va dunyoqarashini kengaytirish, iste'dodli yoshlarni qo'llab quvvatlash, ijodiy izlanish ko'nikmalarini rivojlantirish kabi ko'plab vazifalarga qaratilgan. Mazkur vazifalarni bajarishda ta'lim tizimiga pedagogik texnologiyalarni tadbiiq etish, noan'anaviy usuldagi zamonaviy darslarni tashkil etish, o'qituvchidan yuksak pedagogik mahorat hamda dars jarayonlariga zamonaviy, yangicha yondashuv talab etiladi. Bugungi kunda geografiya o'qituvchisi o'z fani bo'yicha dars samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarni chuqur bilishi va ulardan dars jarayonida foydalana olishi zarur bo'ladi [2].

Ushbu vazifalarni amalga oshirish yo'lida barcha fanlar qatori geografiyaning ham o'rni kattadir. Geografiya fani o'zining qiziqarliligi bilan ajralib turadi. Geografiya darslarini muammoli ta'lim texnologiyasi asosida qiziqarli va ijodiy tashkil etish muhim o'rin egallaydi.

Muammoli ta'lim deganda beriladiga ma'lumotlarni ta'lim oluvchilar ongiga ularning darajasiga mos va muammolarini vujudga keltiradigan yo'sinda o'rgatish tushuniladi. Ta'lim qachonki ushbu yo'sinda olib borilsagina bolaning fikrlash faoliyatida muammoli vaziyatlar vujudga keladi va ular bolani ob'ektiv ravishda izlanishga, tafakkur qilishga va mantiqan to'g'ri ilmiy xulosalar chiqarishni o'rganishga da'vat etadi. Muammoli ta'lim-ilmiy bilishni rivojlantirish zarurligini ifodalashning sub'ektiv shaklidir. U muammoli vaqtning, yangi jamiyat rivojlanishi jarayonida bilish va bilmaslik o'rtasida ob'ektiv ravishda vujudga keladigan vaziyat. Muammoli vaziyat bolaning ma'lum ruhiy holati bo'lib, bu holat ma'lum topshiriqni bajarish jarayonida ziddiyatni anglash tufayli vujudga keladi. "Muammoli vaziyat" metodi - ta'lim oluvchilarda muammoli vaziyatlarning sabab va oqibatlarini tahlil qilish hamda ularning bir qancha echimini topish, eng to'g'ri xulosaga kela olish ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan metoddir. Eng avvalo "Muammoli vaziyat" metodi uchun tanlangan muammoning murakkabligi darajasi ta'lim oluvchilarning bilim darajalariga mos kelishi lozim. "Muammoli vaziyat" lar tanlanganda bolaning yosh jihati, bilim darajasi inobatga olinishi muhimdir. Ular qo'yilgan muammoning echimini topishga qodir bo'lishlari kerak, aks holda echimni topa olmagach, ta'lim oluvchilarning qiziqishlari so'nishiga, o'ziga bo'lgan ishonchlarining yo'qolishiga olib keladi.

Muammoli ta'lim texnologiyasi- didaktikaning barcha yutuqlaridan foydalangan holda ta'lim oluvchilarda ilmiy bilim va tushunchalarni, dunyoqarashni shakllantirish, shaxs va uning intellektual salohiyatini har tomonlama rivojlantirish vositasi sifatida rivojlantiruvchi ta'lim hisoblanadi. Geografiya fanini o'qitishda o'quvchilardagi kreativ sifatlarni rivojlantirishda muammoli ta'lim metodlaridan

“Muammo texnologiyasi” katta ahamiyatga ega. Ushbu texnologiya o'quvchilarga mavzudan kelib chiqqan turli muammoli masala yoki vaziyatlarning yechimini to'g'ri topishlariga o'rgatish, ularda muammoning mohiyatini aniqlash bo'yicha malakalarni shakllantirish, muammoni yechishning ba'zi usullari bilan tanishtirish va muammoni yechishda mos uslublarni to'g'ri tanlashga o'rgatish, muammoni kelib chiqish sabablarini va muammoni yechishdagi xatti-harakatlarni to'g'ri aniqlashga o'rgatishda qo'llash tavsiya etiladi [6].

Geografik muammolar-insonlarning sog'ligi va xo'jalik faoliyatiga salbiy bir butunligida nomutanosiblikni keltirib chiqaruvchi, tabiiy va antropogen omillar natijasida yuzaga keladigan jarayon va hodisalar hisoblanadi. Geoekologik muammolar inson va tabiiy muhitning o'zaro ta'siri natijasida kelib chiqadi. Geografik muammolarni keltirib chiqaruvchi tabiiy omillar va jarayonlardan asosiylari: vulqon otilishi, zilzila, surilma, sel, suv toshqini, kuchli shamollar, yog'inlar va boshqalar hisoblanadi, geoekologik muammolar tarqalgan maydoni bo'yicha –sayyoraviy, regional va lokal kabi guruhlariga ajratiladi [4].

Geografiya fani tabiiy va iqtisodiy-ijtimoiy qismlardan iborat bo'lib, unda tabiat va jamiyat bilan bog'liq bo'lgan barcha muammolar mujassamlashgan. Ushbu muammolar tabiiygeografik va iqtisodiy-ijtimoiy jarayonlar hamda ularni o'zaro ta'siri natijasida shakllanadi va rivojlanadi. Mazkur muammolardan geografiya darslarida foydalanishning eng muhim shartlaridan biri ularni kelib chiqishiga ko'ra quyidagi bir nechta guruhlariga bo'lish mumkin:

- tabiiy geografik muammolar;
- ijtimoiy-iqtisodiy geografik muammolar;
- geoekologik muammolar.

Bu esa geografiya darslarida (ta'limida) quyidagi muammlarni o'rganish kerak ekanligini ko'rsatishi mumkin:

- Atmosfera havosining ifloslanishi bilan bog'liq bo'lgan muammolar- atmosfera ifloslanishining asosiy omili inson faoliyatidir. Asosiy antropogen manbalar sanoat jarayonlari, transport (avtomobil chiqindilari), energiya ishlab chiqarish (qazib olinadigan yoqilg'ilarni yoqish), qishloq xo'jaligi (kimyoviy moddalar va chang) kabi uy-joy faoliyatini o'z ichiga oladi.

- Suvdan foydalanish bilan bog'liq muammolar- noto'g'ri sug'orish texnologiyalari, chuchuk suvning yetishmasligi. Aholi va shaharlarning tez o'sib borishi, qishloq xo'jaligining kengayishi, sanoatning rivojlanishi suvga bo'lgan talabni oshirayotganligi, insoniyatni kelajakda kutayotgan ichimlik suvi tanqisligi muammosi, insoniyatning ehtiyojini qondiradigan ichimlik suvi daryo suvlaridan tejamkorona foydalanish kerakligi bo'yicha ma'lumotlar beriladi va o'quvchilarda mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

- Mineral resurslardan foydalanish bilan bog'liq muammolar- bunda o'qituvchi minreal resurslarni iqtisodiyotning bosh tarmoqlarini rivojlantirish omili ekanligi, bunday resurslarga bo'lgan ehtiyojning tinimsiz ortib borayotganligi, mineral resurslarning turlaridan xo'jalik ehtiyojlari yo'lida rejali foydalanish kerakligini tushuntirib, bu kabi muammolarni hal etish bo'yicha o'quvchilar bilan birgalikda yangi takliflar, kreativ g'oyalarga sabab bo'ladi.

- Biologik resurslaridan foydalanish bilan bog'liq muammolar- bunda o'qituvchi o'quvchilar bilan birgalikda o'rmon mintaqasi joylashgan hududlar, jahon o'rmon resurslarining kamayib ketayotganligi, janubiy mintaqada o'rmonlariga bir necha yuz yillar davomida o'rmonlar hisobiga yer ochish, tropik o'rmonlarni saqlash yuzasidan, ulardagi o'simlik va hayvonot dunyosi qoplamini kamayib ketishini, ularni bu muammolarning yechimini topishga yo'naltiriladi.

- Dunyo okeani boyliklaridan oqilona foydalanish bilan bog'liq muammolar- bu geografik muammoni talqin qilishda o'qituvchi avvalo o'quvchilarga dunyo okeanining mineral va biologik resurslaridan foydalanishni to'g'ri yo'lga qo'yish, dunyo okeanining neft bilan qoplanishini oldini olish, dunyo okeani insoniyatning oziq-ovqatga bo'lgan talabini qondirishi bo'yicha muammoli fikr-mulohazalarni o'rta tashlaydi va o'quvchilar bilan hamkorlikda bu masalalarga to'g'ri yechim topib, o'quvchilarning ijodiy izlanishlari va mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi.

- Yerdan foydalanish bilan bog'liq muammolar- eroziya, sho'rlanish, yaylovlarning degradatsiyaga uchrashi, chorvaning intensiv boqilishi va buta –daraxtlarni kesish bilan bog'liq muammolar.

- Rekreatsion tizimlardan foydalanish bilan bog'liq muammolar, zaharli kimyoviy moddalarning tabiiy muhitni ifloslanishi bilan bog'liq muammolarni keltirish mumkin.

Geografik muammolarni yechishda hududiy, geotizimli va ekologik prinsplar qo'llaniladi. Hududiy prinsplni qo'llash muammoning hududiy miqiyosini aniqlashga, uning rivojlanish chegaralarini, tarqalish arealini ajratishga imkon beradi. Bunday muammoli ta'lim texnologiyasi o'quvchilarda tabiatga ehtiyotkorlik, ekologik madaniyat, undan oqilona foydalanish va tabiatga to'g'ri munosabatni shakllantiradi.

Geografiya darslarida muammoli ta'lim boshqa ta'lim turlaridan o'zining zamonaviyligi, muammoli vazifalarini muvaffaqiyat bilan amalga oshiradigan, o'quvchilarning mustaqil fikrlash, qarorlar qabul qilish, kreativ faoliyatga yo'naltiradigan bir qator ustunliklari bilan ajralib turadi. Muammoli ta'limning zamonaviyligi o'quvchilarning bilish faoliyatini boshqarish masalalarini hal etishdagi roli bilan ham tavsiflanadi. Muammoli vaziyat ularni hal etish yo'llari bilan yangi bilimlarni o'zlashtirishni, faoliyatda muammoli vaziyatlarni vujudga keltirish va hal etishga o'rgatish ko'nikmasini rivojlantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi PF- 60-sonli Farmoni.

2. Mirziyoyev Sh.M.. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib yangi bosqichga ko'taramiz. Toshkent. —O'zbekiston, 2019

3. Abdullayeva D.N., Geografiya darslarini muammoli ta'lim texnologiyasi asosida tashkil etish. Nizomiy nomidagi TDPU ilmiy axborotlari jurnali, № 3-son. 2022-yil.

4. Abduvoxidov S.N., G'aniyev Z.A. Geografiya ta'limi metodikasi Samarqand, 2021

5. Vaxobov X., N.R.Alimkulov., N.B.Sultonova. Geografiya o'qitish metodikasi., Toshkent: - “Nodirabegim” nashriyoti. 2021 yil.

6. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar(ta'lim muassasalari pedagog-o'qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar). -T.: Iste'dod – 2008. 87 bet.

7. Saydirasilovna, U. N. (2024). “AHOLIGA XIZMAT KO'RSATISH SOHALARI GEOGRAFIYASI” MAVZUSINI O'QITISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH USULLARI. *THEORY AND ANALYTICAL ASPECTS OF RECENT RESEARCH*, 3(26), 119-123.

8. Уринова, Н. (2023). МЕТОДИКА ФОРМИРОВАНИЯ ГЕОГРАФИЧЕСКОГО ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО КОМПЕТЕНТНОСТЬ СТУДЕНТОВ. *Предпринимательства и педагогика*, 1(2), 162-166.